



**AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING KAPITAL BOZORIDAGI ISHTIROKINI
TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI**

*Mo'minov Shohijahon Suyun o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

Annotatsiya. Maqolada korporatsiyalarning kapital bozoridagi faoliyatini rivojlantirish, ularning faoliyatini takomillashtirish va yangi zamonaviy loyihalarda ishtirokini oshirish hamda korporativ boshqaruv va kapital bozori orqali iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyatları, kapital bozori, investitsiya, korporativ boshqaruv, heyj fondlar, kompaniyalarни korporativ boshqaruv tamoyillari orqali rivojlantirish, texnologik yangiliklar, iqtisodiy rivojlanish.

**ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧАСТИЯ АКЦИОНЕРНЫХ
ОБЩЕСТВ НА РЫНКЕ КАПИТАЛА**

*Muminov Shokhijakhon Suyun ugli
Tashkent State University of Economics*

Аннотация. В статье рассматривается развитие деятельности корпораций на рынке капитала, совершенствованию их деятельности и участию в новых современных проектах, дальнейшему развитию экономики через корпоративное управление.

Ключевые слова: акционерные общества, рынок капитала, инвестиции, корпоративное управление, хедж-фонды, развитие компаний на основе принципов корпоративного управления, технологические инновации, экономическое развитие.

**FOREIGN EXPERIENCE OF IMPROVING THE PARTICIPATION OF JOINT-STOCK
COMPANIES IN THE CAPITAL MARKET**

*Muminov Shokhijakhon Suyun ugli
Tashkent State University of Economics*

Abstract. In the article, the development of the activities of corporations in the capital market, improvement of their activities and participation in new modern projects, and further development of the economy through corporate governance.

Key words: joint stock companies, capital market, investments, corporate governance, hedge funds, development of companies based on the principles of corporate governance, technological innovation, economic development.

Kirish.

Bugungi kunda korporatsiyalar, aksiyadorlik jamiyatları va kapital bozori iqtisodiyotning asosiy tizimlardir. Korporatsiyalar mamlakat iqtisodiyotiga hissa qo'shishda asosiy rol o'ynaydi. Bular asosan aksiyadorlik jamiyatları hisoblanadi va bu yuridik shaxslar kompaniya yoki tijorat banklari hisoblanadi. Bugungi bozor iqtisodiyotida korporatsiyalarning ahamiyati juda muhim. Korporatsiyalarning va xususiy banklarning faoliyati ancha rivojlanyapti. Respublikamiz kompaniyaları va banklari faolioyatini yanada rivojlantirish uchun zamonaviy korporativ boshqaruvni to'laqonli ishlashini taminlashimiz kerak. Investitsiyalar oqimini kuchaytirish kerak.

Aksiyadorlik jamiyatlarini ya'ni kompaniyalardan tashqari tijorat banklari ham aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi. Bu tashkilotlarda korporativ boshqaruvni yo'lga qo'yish orqali ham ularni faoliyati tizimlashtiriladi ham rivojlanadi va bu o'z o'rnda mamlakat iqtisodiyotiga juda katta foyda keltiradi. Korporativ boshqaruv bu hamkorlik va tizimlashtirish ustiga qurilgan boshqaruv hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda deyarli barcha kompaniyalarda korporativ boshqaruv tizimi to'laqonli ishlaydi. Ushbu maqolada investitsion korporativ boshqaruv faoliyatini yo'lga qo'yish orqali aksiyadorlik jamiyatlarini hamda mamlakatimiz iqtisodiyotni rivojlantirish uchun bir qancha takliflar berilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Mavjud iqtisodiyot va moliya sohasidagi adabiyotlarda "Aksiyadorlik jamiyatlarini kapital bozoridagi ishtirokini takomillashtirish" bo'yicha masalalar xorijlik va mahalliy olimlar va mutaxassislar tomonidan o'rganilgan va tegishli ta'riflar berilgan.

Elmirzayev (2021) zamonaviy global iqtisodiyotda xalqaro moliya bozori, xalqaro fond bozori va investitsiyalar bozorining qanday shakllanishi va ularning yangi tashkil qilingan kompaniyalarning va loyihalarning moliyalashtirish jarayonidagi o'rni haqida ma'lumotlar berilgan va bu ma'lumotlarni moliyaviy tilda asoslab beradi.

Bob Tracker (2023), kompaniyalar faoliyati, korporativ boshqaruvning kelib chiqishi va kapital bozori va aksiyadorlik jamiyatlarining listing jarayonidan o'tishi va moliyalashtirish jarayoning bosqichma bosqich amalga oshirilishi bo'yicha klassik bilimlar berilgan.

Gary Strumeyer (2017) fikricha kapital bozori va investitsiyalar haqida muhim bilimlar bor va bu mutaxassis bu kitobi orqali yangi loyihalarni moliyalashtirish jarayonini bank kreditlari orqali emas balki kapital bozori va investitsion fondlar orqali amalga oshirish muhimligini takidlaydi.

Glosten (2019) rivojlangan mamlakatlarda kapital bozorining ishlash tajribasi, fuqarolar pullarini fond bozoriga jalg qilish va bu orqali yangi loyihalarning moliyalashtirish jarayonlarini tezlashtirish haqida o'zining tajribalarini keltirib o'tgan, bundan tashqari vechur fondlarining faoliyati haqida qimmatli ma'lumot va fikrlarni ta'kidlab o'tgan.

Ushbu maqolada yuqorida mutaxassislaridan kelib chiqib, ularning bilimlari va tajribalari, asosan xorij tajribasi asosida o'z fikrlarimni keltirib o'tganman.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolani tayyorlashda aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozoridagi ishtirokini takomillashtirish bo'yicha amaliy ma'lumotlar tahlil qilindi va barcha foydalanilgan ma'lumotlar amaldagi qonun hujjatlari va aksiyadorlik jamiyatlarining statistik ko'rsatkichlari asosida muallif tomonidan tadqiq qilindi. Maqolada guruhlashtirish, taqqoslash, tizimli yondashuv, va tarkibiy tahlil usullari qo'llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bu maqolada bugungi kunda qaysi davlatda kompaniyalar o'zlarini moliyalashtirishda kapital bozoriga murojaat qilayotgan bo'lsa iqtisodiyotning barqaror o'sishiga erishayotgani haqida bilimlar va xorijiy tajribalar keltirilgan. Kapital bozorining rivojlanib borishi o'tgan asrning 70 yillariga to'g'ri keladi lekin bundan ancha oldin mavjud bo'lgan. AQSH va G'arbiy Yevropa davlatlarida kapital bozori o'tgan asrning 50 yillaridan keyin juda tez rivojlangan. Aslida buning boshlanishi feodalizm tugab sanoat davrining boshlanishi bilan paydo bo'lgan. Sanoat davrida korporatsiyalarni tizimli va tartibli boshqarish uchun korporativ boshqaruv kerak bo'lgan. Ya'ni mulkdorlar mulkka egalik qilgan holda uning boshqaruvini yollanma boshqaruvchilarga topshirgan va nazorat qilgan. Bu esa kompaniya faoliyatining tez rivojlanishiga hamda kompaniya egasining vaqtini tejashta hamda mas'uliyatini cheklashga olib kelgan.

Rivojlangan mamlakatlarda kapital bozori va investitsion fondlar faoliyatiga asoslangan tizim ishlaydi. Ularda kompaniyalar ayniqsa yirik aksiyadorlik jamiyatlarini boshqacha boshqaruvni bilmaydi. Investitsion banklarning boshqaruvi ham shunga asoslangan. Respublikamizda tijorat banklaridan tashqari investitsion banklarni tashkil qilish kerak. Tasavvur qiling tijorat banklari investor vazifasini bajaradi. U o'z resurslari bevosita real aktivlarni tashkil etish va moliyaviy aktivlarni xarid qilishga yo'naltiradi. Shu orqali tijorat banklari bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik subektlarining pul kredit shaklida yuzaga keluvchi investitsion talablarini amalga oshishini rag'batlantiradi. Korporativ boshqaruvning ham Yapon modelida korporatsiyalarning yirik ulushiga Investitsion banklar egalik qiladi. Ular kompaniyalarni kredit orqali emas balki investitsiya orqali moliyalashtiradi va har doim



korporatsiyalarning o'ziga tegishli ulushini doimiy o'zida saqlab keladi. Bugungi kunda Yaponiya iqtisodiyoti eng kuchli 10 davlatlar qatoriga kiradi hamda investitsion loyihalar, robototexnika, suniy intellekt va startaplar mamlakati hisoblanadi. Buning barchasi investitsion faoliyat to'g'ri yo'lga qo'yilgani uchun va ilm fan loyihalariga asosan investitsiyalariga mablag'lar yo'naltirilganligi evaziga bo'lmoqda.

Investitsiya asosida turli soha va tarmoqlarga yangi texnologiyalar, tajribalar va malakali kadrlar kirib keladi. Isroil davlatini misol tariqasida olsak, bu davlat startaplar davlati deyiladi chunki bugungi kunda Isroil davlatining iqtisodiy o'sishi yangi texnologiyalarga asoslangan. Bunda investitsion banklarning, heyj fondlarning va xususiy investorlarning o'rni katta. Isroil muntazam yangi startaplarni, ayniqsa raqamli loyihalarni moliyalashtirib keladi va bu davlatda juda ham jozibali investitsion muhit mavjud. Bu moliyalashtirishlar investitsions banklar, fondlar yoki xususiy investorlarning hisobiga bo'ladi bank kreditlari hisobiga emas. O'zbekistonda iqtisodiyot rivojlanishi uchun kapital bozori rivojlanishi kerak. Buning uchun biz rivojlangan mamlakatlar kapital bozori tajribasini o'rganishimiz kerak. Bugungi kunda respublikada fond bozorining ulushi iqtisodiyotda juda kam. Ko'p kompaniyalar moliyalashtirishda bank kreditidan foydalanadi. Bu juda foydali usul emas. Buning o'rniga heyj fondlar, investorlar yoki investitsion banklarning mablag'laridan foydalansak kompaniyalar iqtisodiy tez o'sadi. O'zbekiston fuqarolari O'zbekistonga jo'natadigan pul jami 10 milliard dollardan oshadi. Agar bu pullarni Respublika fond bozoriga yo'naltirsak qo'shimcha 10 milliard dollar mablag' paydo bo'ladi va bu fond bozorining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bu odamlar fond bozorida aksiyalar sotib olishi uchun iqtisodiyotda davlatning ishtiroki kamayishi kerak. Yangi startap loyihalar rivojlanishi kerak. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv yo'lga qo'yilishi kerak hamda erkin va shaffof faoliyat yuritishi kerak. Shunda respublikamiz aholisi o'zining pullariga fond bozorida aksiya sotib oladi. Bundan tashqari biz xorijiy fond bozorlar tajribasini o'rganishimiz kerak.

O'zbekistonda iqtisodiyot rivojlanishi uchun kapital bozori rivojlanishi kerak. Buning uchun biz rivojlangan mamlakatlar kapital bozori tajribasini o'rganishimiz kerak. Bugungi kunda respublikada fond bozorining ulushi iqtisodiyotda juda kam. Ko'p kompaniyalar moliyalashtirishda bank kreditidan foydalanadi. Bu juda foydali usul emas. Buning o'rniga heyj fondlar, investorlar yoki investitsion banklarning mablag'laridan foydalansak kompaniyalar iqtisodiy tez o'sadi. Buning uchun bir nechta yechimlar bor:

1. Kapital bozori investorlar uchun qulay bo'lishi kerak;
2. Startaplar uchun soliq chegirmalari bo'lishi kerak;
3. Mahalliy fuqarolar pullarini fond bozoriga jalb qilish kerak;
4. Masuliyati cheklangan jamiyatlariga obligatsiya chiqarish huquqini berish kerak;

Kapital bozorida talab va taklif qanchalik ko'p bo'lsa investorlar ham ko'p bo'ladi. Bugungi kunda O'zbekiston fuqarolarining ko'p qismi chet davlatlarda ishlaydi. Rossiyada 3 million, Turkiyada 3 million, Yevropada 1 million va Amerikada 300 ming aholi ishlaydi. Ular O'zbekistonga jo'natadigan pul jami 10 milliard dollardan oshadi. Agar bu pullarni Respublika fond bozoriga yo'naltirsak qo'shimcha 10 milliard dollar mablag' paydo bo'ladi va bu fond bozorining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bu odamlar fond bozorida aksiyalar sotib olishi uchun iqtisodiyotda davlatning ishtiroki kamayishi kerak. Yangi startap loyihalar rivojlanishi kerak. Aksiyadorlik jamiyatlar erkin va shaffof faoliyat yuritishi kerak. Shunda respublikamiz aholisi o'zining pullariga fond bozorida aksiya sotib oladi. Bundan tashqari biz xorijiy fond bozorlar tajribasini o'rganishimiz kerak.

Masalan: Nyu York fond bozori, London fond bozori, Hong Kong fond bozori.

Bular rivojlangan fond bozorlari hisoblanadi. Bundan tashqari biz Rossiya va Qozog'iston fond bozorlari tajribalarini ham o'rganishimiz kerak. Bu davlatlar fond bozorlari ancha rivojlangan. Bu davlatlarda yirik investitsion banklar, texnologik kompaniyalar va brokerlar bor.

O'zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun banklar singari boshqa aksiyadorlik jamiyatlarida ham korporativ boshqaruv tizimini joriy qilish kerak. Buning uchun biz rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganishimiz kerak. O'zbekistonda korporativ boshqaruv yo'lga qo'yilgan birinchi tashkilot tijorat banklari hisoblanadi. Lekin biz bugungi kunda boshqa faoliyatlarni ham rivojlantirishimiz kerak. Korporativ boshqaruv rivojlangan jamiyatlarda heyj fondlar, investorlar yoki investitsion banklarning faoliyati juda rivojlangan va bu iqtisodiyotning tez o'sishiga olib keladi. Rivojlanayotgan kompaniyalar uchun birinchi navbatda investitsiya kerak. Shuning uchun bizning davlatimiz ham Isroil kabi davlatlarning iqtisodiy tajribasini qo'llashi muhim hisoblanadi. Yangi startap loyihalar rivojlanishi kerak. Aksiyadorlik jamiyatları erkin va shaffof faoliyat yuritishi kerak. Korporativ

boshqaruvni rivojlantirish orqali bizning davlatimizda ham quyidagi kompaniyalar kabi yirik rivojlangan kompaniyalar paydo bo'ladi:

1. Telegram- Russia
2. Tinkoffbank- Russia
3. Kaspi- Kazakhstan
4. Freedom Finance- Kazakhstan
5. Vilgud- Russia

Bu kompaniyalar iqtisodiy jihatdan ancha rivojlangan va bu kompaniyalarda korporativ boshqaruv juda zo'r yo'lga qo'yilgan. Bizning davlatimizda ham shunday loyihalar bo'lishi kerak. Shunda xorijiy investorlar ko'payadi.

Davlatimizda kapital bozorini rivojlantirishning muhim yo'nalishlar bor:

1. Kompaniyalarda davlatning ulushini kamaytirish;
2. Obligatsiya turlarini ko'paytirish;
3. Fond bozoriga mahalliy va xorijiy investorlarni jalg qilish;
4. Sug'urta kompaniyalarini rivojlantirish;
5. Emitentlar sonini ko'paytirish;
6. Investitsion fondlarni tashkil qilish;

Kompaniyalarning xalqaro miqyosda rivojlanishini taminlaydigan asosiy omil mavjud. Bu kompaniyalarning xorijiy fond bozorlarida listingdan o'tishi hamda IPO o'tkazishi hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlar moliyaviy jihatdan ustun bo'lishi uchun bu bosqichlardan o'tishi kerak. Xorijiy fond bozorlarida listingdan o'tish va IPO o'tkazish oson jarayon emas. Buning uchun har bir davlatning o'zining listing talablari va to'lovi mavjud. London fond bozori yoki New York fond bozorlari ma'lum bir listing talablari, to'lovlar, adolatli va shaffof faoliyatni talab qiladi. Banklarimiz manashu talablarga javob bergen holda kelajakda xalqaro fond bozorlariga chiqishi mumkin. Fond bozorlari va IPO jarayonlari investitsiyalar jalg qilishning eng foydali usuli hisoblanadi. Manashu singari faoliyatni yo'lga qo'ya oladigan kompaniyalar kelajakda muvaffaqiyatli bo'ladi. Bizning kompaniyalarimiz ham shu bosqichlarni amalga oshirgan holda yangi loyihalarni va startaplarni moliyalashtirishi mumkin hamda iqtisodiyotga katta foyda keltiradi.

Zamonaviy loyihalarni moliyalashtirishning zamonaviy turlari:

1. Fond bozori
2. Investitsion banklar
3. Heyj fondlar
4. Angel investorlar
5. Venchur fondlar

Tasavvur qiling tijorat banklari investor vazifasini bajaradi. U o'z resurslari bevosita real aktivlarni tashkil etish va moliyaviy aktivlarni xarid qilishga yo'naltiradi. Shu orqali tijorat banklari bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik subektlarining pul kredit shaklida yuzaga keluvchi investitsion talablarini amalga oshishini rag'batlantiradi.

Shu o'rinda kredit va investitsiyaning farqli tomonlarini ko'rib chiqsak.

Kredit:

Kredit berilgandan keyin albatta qaytarilishi kerak va bu yangi tashkil qilingan kompaniya uchun juda katta yuk hisoblanadi. Kelajakda bu kompaniya muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo'lishi aniq emas. Shuning uchun kredit moliyalashtirishning unchalik yaxshi usuli emas va kredit faqat bankning foydasini ko'zlaydi hamda kredit qaytarilgan kunda bankning shu kredit orqali olgan foydasi tugaydi.

Investitsiya:

Investitsiya- bu bir qancha loyihalarga kiritiladi va shartnomaga ko'ra yangi tuzilgan startap yoki kompaniyalar qachonki foydaga chiqqanda investor kiritgan investitsiyasiga qarab doimiy foydada bo'ladi. Shuningdek aynan investitsiya so'mmasi qaytarilishi shart emas va bu tadbirkor uchun ancha xotirjam faolitini olib borish imkoniyatini beradi. Investitsiya har ikki tomonni ya'ni bankni ham kompaniyani ham foydasini ko'zlaydi.

Largest venture capital in the world

1. Sequoia Capital
2. Andresson Horowitz
3. Accel Partners
4. Kleiner Perkins
5. Benchmark Capital

- 6. Index Ventures**
- 7. Greylock Partners**
- 8. Founders Fund**
- 9. 500 Startups**
- 10. New Enterprise Associates**

Rivojlangan davlatlarning fond bozorlarida ya'ni London fond bozori, New York fond bozori va Hong Kong fond bozorlarida kompaniyalarimiz aksiyalari joylashtirilishi uchun bizning aksiyadorlik jamiyatlarimizda korporativ boshqaruv to'laqonli yo'lga qo'yilishi bu- yirik fond bozorlarning eng muhim talablaridan biri hisoblanadi. Chunki korporativ boshqaruv o'zida muhim tamoyillarni jamlaydi. Bular- Adolatlilik, shaffoflik, hisobdorlik va javobgarlik hisoblanadi. Bu tamoyillar asosida faoliyat yurituvchi kompaniyalar shubhasiz iqtisodiy tez rivojlanadi va bunda tizim ishlagani uchun kompaniya faoliyati barqaror bo'ladi va uzoq yillar faoliyat yuritadi. Bu o'z o'rniда 100-150 yillik tarixga ega kompaniyalar paydo bo'lismiga olib keladi. Bugungi kunda shunday kompaniyalar mavjud:

- 1. JP Morgan**
- 2. Nestle**
- 3. Coca Cola**
- 4. Ford**
- 5. Pepsi**
- 6. General Electric**

Bu kompaniyalar 100 yil va undan ham ko'proq tarixga ega hamda o'z qadriyatlariga ega kompaniyalar hisoblanadi.

Kapital bozorining rivojlanishida kompaniyalarda korporativ boshqaruvni yo'lga qo'yishning juda katta o'rni bor. Adolatlilik, shaffoflik, hisobdorlik va javobgarlik kabi korporativ boshqaruv tamoyillari yo'lga qo'yilgan kompaniyalarda endigina ish boshlagan xodim ham hech qanday korrupsiyasiz va tanish bilishlarsiz karyera qila oladi. Chunki kompaniyada tizim ishlaydi va kompaniyaning qonun qoidalariaga amal qilib o'z ustida ishlab tinimsiz rivojlanib borgan hamda kompaniyaga foyda keltirgan oddiy xodim ham karyera qilib CEO darajasigacha chiqishi ham mumkin va shu o'rinda kompaniya aksiyadori ham bo'lisi mumkin. Bunga misol qilib Hindistonlik Sundar Pichai ni keltirishimiz mumkin. U oddiy talaba bo'lib Hindistondan AQSH ga kelgan va universitetni bitirib Google ga ishga kirgan. Bugungi kunda u Google da CEO hisoblanadi ya'ni kompaniyani u boshqaradi.

Korporativ boshqaruvning bir necha modellari mavjud. Amerika, Germaniya va Yaponiya singari dunyo tan olgan modellar mavjud. Chunki bu davlatlar korporativ boshqaruvni samarali yo'lga qo'ya olgan. Shuning uchun bu davlatlarning o'zi ham kompaniyalari ham dunyoda yetakchi hisoblanadi. Birgina Yaponiyaning o'zi texnologiyada dunyoda yetakchi hisoblanadi va bu davlatda kuchli investorlar hamda juda yirik fondlar rivojlangan korporatsiyalar bor. Yaponiyalik investor Masayoshi Son hisoblanadi. U o'zi asos solgan fondga biznesmenlardan katta miqdorda mablag'larni jalgilgan holda startaplarga pul tikadi va yangi loyihalarni kash etadi. Softbank ma'lumotlariga ko'ra uning har yigirmatadan bitta loyihasi muvaffaqiyatliligi bo'ladi va qolgan muvaffaqiyatsiz 19 ta loyihaning zararini qoplab, foydaga chiqadi. Uning eng muvaffaqiyatliligi loyihalardan biri Alibaba Group hisoblanadi. Shuning uchun biz davlatimizdagagi har bir kompaniyada korporativ boshqaruvni mukammal yo'lga qo'yishimiz kerak. Afsuski bugungi kunda bizning davlatimizdagagi aksiyadorlik jamiyatlar qo'l boshqaruvida ish yuritadi. Bu bugungi davr talabiga umuman mos kelmaydi. Bu boshqaruv tartibsiz boshqaruv hisoblanadi va bu kompaniya rivojlanishini va barqaror faoliyat yuritishini sekinlashtiradi. Qo'l boshqaruvidan voz kechib tizimli boshqaruvga o'tish kerak va kompaniyalarimizda korporativ boshqaruvni hamda korporativ madaniyatni rivojlangan davlatlar tajribasi asosida va zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borish kerak

Xulosa va takliflar.

Kompaniyalarimiz faoliyatini rivojlantirish uchun bir qancha omillar mavjud. Buning uchun alohida heyj fondlar va investitsion banklar tashkil qilinishi kerak va ular o'z fondlariga ega bo'lisi kerak. Har bir kompaniyada u Mas'uliyati cheklangan jamiyatmi, aksiyadorlik jamiyatimi yoki bankmi ya'ni qanday kompaniya bo'lisdan qatiy nazar ularda korporativ boshqaruv yo'lga qo'yilishi kerak va bu kompaniyalar fond bozorlariga chiqishi kerak. Fond bozori rivojlanishi kerak va banklarning bunda ishtirokini kuchaytirish kerak. Banklar investitsion faoliyat bilan shug'ullanishi uchun ularning o'zi moliyaviy jihatdan kuchli va mustaqil bo'lisi kerak. Banklar mustaqil holda va zamon talablariga to'la javob beradigan holda faoliyatini tashkil qilishi kerak. Banklarning investitsion faoliyati kredit



faoliyatidan ancha ustun bo'lishi kerak. Banklarning xalqaro miqyosda rivojlanishini taminlaydigan asosiy omil mavjud. Bu banklarning xorijiy fond bozorlariga chiqishi hamda IPO o'tkazishi hisoblanadi. Banklar moliyaviy jihatdan ustun bo'lishi uchun bu bosqichlardan o'tishi kerak. Xorijiy fond bozorlarida listingdan o'tish va IPO o'tkazish oson jarayon emas. Buning uchun har bir davlatning o'zining listing talablari va to'lovi mavjud. London fond bozori yoki New York fond bozorlari ma'lum bir listing talablari, to'lovlar, adolatli va shaffof faoliyatni talab qiladi. Bundan tashqari ular kompaniyalarda korporativ boshqaruv mukammal yo'lga qo'yilganligini talab qiladi. Banklarimiz manashu talablarga javob bergen holda kelajakda xalqaro fond bozorlariga chiqishi mumkin. Fond bozorlari va IPO jarayonlari investitsiyalar jalg qilishning eng foydali usuli hisoblanadi. Softbank va Alibaba Group kompaniyalari misoldida investitsiya va IPO ning kuchi haqida tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin. Manashu faoliyatni yo'lga qo'ya oladigan kompaniyalar kelajakda muvaffaqiyatlbo'ladi. Bizning kompaniyalarimiz ham shu bosqichlarni amalga oshirgan holda yangi loyihalarni va startaplarni moliyalashtirishi mumkin hamda iqtisodiyotga katta foyda keltiradi.

Adabiyotlar/Jumeepamypa/Reference:

- Bob Tracker (2023), The practice of corporate governance, copyright.*
Elmirzayev S. (2021) "Kapital bozori" darslik, -T.: "Iqtisod Moliya".
Gary Strumeyer (2017), The capital markets.
Glosten L.R. (2019) The new stock market, Columbia University Press.